Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · "Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnol... DOI: 10.5281/zenodo.24318219

materiallar to'plami

TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA "MUHANDISLIK TA'LIMINI" O'QITISHNING HOZIRGI HOLATI

p.f.n. dots. Shaxodjaev Maxmud Axmedovich Farg'ona politexnika instituti
Xonzomonov J.B. 52-23 PT (EEE) guruh talabasi Farg'ona politexnika instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada texnika oliy ta'lim muassasalarida "Muhandislik ta'limini" o'qituvchilariga bugungi kun talabi asosida ta'lim beruvchiga kasbiy mahoratini oshirishda, bilim – ko'nikmalarni ta'lim oluvchilarga etkazish, uslubiy jihatdan amaliy, tahliliy yondoshilgan. Dars mashg'ulotlarini tashkil qilishda an'anaviy usuldan voz kechmagan holda axborot texnologiyalaridan foydalanish uslubiyoti berilgan. *Pedagogik mahoratni oshirib borish uchun o'qituvchi izlanishi, pedagogik – psixologik nazariyalarni bilishi, sog'lom raqobat hukm surayotgan jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi mustaqil va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashdek muhim dolzarb masalalar to'g'risida tahliliy – analitik fikrlar berilgan.*

Kalit suzlar:
Pedagog, milliy tizim, kunikma, metod, taxlil, malaka, nazariya, interfaol, xususiyat, mezon, soglomrakobat, tajriba, ma'naviyat, ma'rifat, psixologiya, vaziyat, ta'lim texnologiyalari, kasbiy maxorat, ta'lim, tarbiya.

Kirish

Bugungi kunda fan-texnika va texnologiyalarning yuqori suratlarda taraqqiy etishi sababli ta'lim muassalarida ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari uzluksiz o'zgarib, xajmi keskin ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida ularning keyingi faoliyatida zamonaviy kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanishga doir bilim, ko'nikma va malakalar tizimiga ega bo'lishni taqoza etadi. Talim jarayonida didaktik vosita sifatida zamonaviy kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish ta'lim sifatini oshirishda muhim omil bo'lib hizmat qiladi.

Ishlab chiqarish va axborot texnologiyalarini bevosita to'g'ri va samarali amaliyotga joriy etilishi kadrlarning salohiyatiga bog'liq. Malakali kadrlar tayyorlashda axborot texnologiyalar alohida o'rin tutadi. Axborot texnologiyalardan samarali va to'g'ri foydalanish esa insonga mediya makonda ta'lim va tarbiya berishning ilmiy inson tafakkuriga ya'ni ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning intellektual salohiyatiga bog'liq holda amalga oshiriladigan jarayonlar majmuidir.

Tadqiqotning metodologiyasi va obyekti

Ta'lim berishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, ta'lim jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'limda axborot metodlarini qo'llash har bir o'quv mashg'ulotining didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiqdir. Ta'lim oluvchilarni faollashtiradigan axborot metodlar bilan o'quv mashg'ulotlarni boyitish ularda o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayonining oqilona tashkil qilinishini, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchining qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonidagi faolligini muttasil rag'batlantirib borish, ta'lim mazmunini axborot texnologiyalari orqali ochishda video proektor, interaktiv onlayn testlar, bahs – munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn,

Published: 10.11.2023

Cite this article: Shaxodjaev Maxmud Axmedovich, Xonzomonov J.B (2023). Texnika oliy ta'lim muassasalarida "muhandislik ta'limini" o'qitishning hozirgi holati. Emro Science and Education, 1(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24318219

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

loyiha, rolli o‘yinlar kabi media metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilardan amaliy mashqlarni mustaqil bajarish talab qilinadi.

Ta’lim beruvchining kasbga oid mahoratini shakllantirishda ijtimoiy tarmoqda pedagogik –psixologik nazariyalarning ahamiyati kattadir, chunki ma’naviyatimizning shakllanishida ulug‘ insonlar faoliyati, pedagogik texnologiyalar to‘g‘risidagi nazariyalar pedagogik mahoratni shakllantirishning asosiy manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Media tajribalarni takomillashtirishda ilmiy axborot ma’lumotlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ta’lim beruvchi pedagogik faoliyatida tajribalar to‘playdi, tahlil qiladi va ular asosida xulosalar chiqaradi. U shu xulosalardan o‘zining amaliy faoliyatida foydalanish orqali hozirgi zamon pedagogi uchun zarur bo‘lgan bilimlarni egallaydi. Pedagogik jarayonda ta’lim beruvchi o‘zining yangi g‘oyalarini rivojlantirish va takomillashtirishi pedagogning iqtidoriga, malakasiga bog‘liq. Pedagogik izlanish ta’lim berish jaryonida doimo ma’lum yo‘nalishdagi sub’ektga nisbatan aniqlashtirilgan bo‘ladi. Zamonaviy o‘qitishda axborot texnologiyalar orqali bilim oluvchilarning bilimlarini o‘z vaqtida nazorat qilish va baholash muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi

Hozirgi kunda ijtimoiy va iqtisodiy shart – sharoitning murakkab tus olishi yoki ta’lim tizimiga nisbatan yangi talablarning yuzaga kelishi pedagoglardan o‘z faoliyatlarini tubdan o‘zgartirishi hamda izchil, aql – zakovatni ishga solgan holda ish tutishni taqozo etmoqda. Bu bir tomondan davr talabi ekanini hisobga olishni, ikkinchi tomondan shart – sharoitga nisbatan tub burilish hosil qilish yoki shaxs faoliyatini yo‘naltirishda yangicha munosabatda ish tutishni talab etadi. Chunki mamlakat ravnaqi ta’lim tizimida ijobiy o‘zgarishlar pedagog xodimlarning psixologiyasida qanchalik burilish yasashi bilan belgilanadi. Ta’lim beruvchining pedagogik faoliyati samaraga ega bo‘lmog‘i uchun ko‘p jihatdan shaxs xususiyatlarining shakllanganligi, shaxs yo‘nalishining aniqlanganligini va kasbiy mahoratining tarkib topganligi bilan ahamiyatlidir. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchining ichki dunyosini tushunishi, o‘quvchiga faol ta’sir o‘tkazishi, mustaqil va ijodiy fikrlashga yo‘nalishini aks ettiruvchi mezon bo‘lishi kerak. Bu mezon ta’lim beruvchi faoliyatini doimiy o‘z – o‘zini nazorat qilish imkoniyatini yuzaga chiqaradi va uning samaradorligini ta’minlaydi.

Texnika oliy ta’lim muassasalarida “Muhandislik ta’limini” professor – o‘qituvchilari asosan texnik mutaxasislar bo‘lganligi sababli ushbu sohaga endi kirib kelgan yosh o‘qituvchilarda pedogogik hamda axborot texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha malaka va ko‘nikmalari etarli darajada emas. Shuni inobatga olgan holda muhandislik ta’limi yosh o‘qituvchilarini pedogogik hamda axborot texnologiyalari bo‘yicha ko‘nikmalarini malaka oshirish yoki qisqa kurslarni tashkil qilish orqali rivojlantirish kerak.

Malakali pedagog boshqa har qanday malakali mutaxassislar singari o‘z bilim va malakalaridan pedagogik faoliyatda samarali foydalana bilishi, ya’ni tarbiyaviy ishlarda ham ulardan oqilona foydalanishi bilan xususiyatlidir. Ta’lim va tarbiyada o‘qituvchining shaxsiyati, uning obro‘si nihoyatda muhim o‘rin egallaydi.

Xulosa

Shunday qilib yuqorida keltirilgan fikrlar taxlili asosida quydagicha xulosa qilish mumkin:

Raqobatbardosh yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda zamonaviy pedagogik va axborot komunikatsion texnologiyalarning qo‘llanishi o‘zining pedagogika va boshqa fan yutiqlari bilan bog‘liq xususiy nazariyasiga ega; u birinchi navbatda ta’lim jarayonini ilmiy asosda qurishga yo‘naltirilgan, ta’lim berishning axborotli vositalaridan va dedaktik materiallardan, faol metodlardan keng foydalanishga asoslangan bilim beruvchi va bilim oluvchilarning birgalikdagi faoliyatiga zamin yaritadi.

Ta’lim ijtimoiy tizimning bir qismi bo‘lib, u o‘z rivojlanishida jamiyat taraqqiyotining yo‘nalishlariga bog‘liq ravishda ro‘y berayotgan aksariyat o‘zgarishlarga muvofiq o‘zgarib boradi. Ana shu doirada inovatsiyalar ta’lim oldida turgan vazifalarni muvoffaqiyatli amalga oshirishning asosiy shartlari xisoblanadi. Malakali pedagogning kasbiy, innovatsion qobiliyatlari pedagogik mahoratning asosiy ta’lim taraqqiyotida muhim omili bo‘lib xizmat qiladi.

Men yuqoridagilarni inobatga olib quydagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb o‘ylayman.

1. Texnika oliy ta’lim muassasalarida “Muhandislik ta’limi” professor – o‘qituvchilariga axborot texnologiyalaridan dars jarayonida foydalanish bo‘yicha qisqa muddatli onlayn ochiq kurslarni joriy etish.
2. “Muhandislik ta’limi” professor – o‘qituvchilariga dars jarayonlarini qiziqarli tashkil etish uchun pedagogik texnologiyalaridan samarali foydalanish bo‘yicha treninglar o‘tkazish.
3. Yosh o‘qituvchilarga auditoriyada o‘zini tutishi talabalar bilan muloqot qilishlari uchun psixalogik treninglar tashkil qilish.

Ushbu kurslarni o‘zlashtirgandan so‘ng yosh o‘qituvchilarga sinov darslarini berib malaka hosil qilishiga imkon yaratish orqali biz Texnika oliy ta’lim muassasalarida “Muhandislik ta’limi” o‘qituvchilarini rivojlantirishmiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipov U. K; Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari (uslubiy qo‘llanma) Toshkent, “Fan” nashriyoti 2006 yil
2. Maxkamov U. Tillaboeva N. Tillaboeva Sh. Pedagogik maxorat (uslubiy qo‘llanma) Toshkent, TATU bosmaxonasi 2003 yil.
3. Shaxodjaev M. A. Self-education and methods of its organization in the technical branches of education //Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology. – 2020. – T. 2. – №. 6. – S. 426-432.
4. M.A. Shakhodjaev, N.Khamdamov “Modern teaching methods using didaktig aids (on the example of practical and laboratory classes” ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 10, Issue 10, October 2020. P.1229-32.
5. M.A. Shakhodjaev M.A. Involvement of students in research work. Tashkent State Pedagogical University. Scientific Information. Scientific-theoretical Journal № 3. 2020. P.112-115.

6. Orunboyeva U. S. STRUCTURING OF TEACHING AND LEARNING ACTIVITIES //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – T. 2. – №. 5. – S. 380-383.
7. Sharabidinovna O. U. Development of Independent Activity of Students in Teaching English as A Specialty //European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices. – 2023. – T. 1. – №. 3. – S. 50-55.
8. Sharabidinovna O. U. Organizing Students' Independent Work In Teaching Foreign Languages //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2023. – T. 21. – S. 130-134.
9. Nurdinbekovich K. N. Improving the Quality of Personnel in the Field of Technology Through the Effective Organization of Independent Education //Journal of Pedagogical Inventions and Practices. – 2023. – T. 21. – S. 62-65.